

KONSTITUTSIYAVIY ISLOHATLAR YOSHLAR NIGOHIDA

¹Jalolova Yulduz Muhiddin qizi,

²Amrullayeva Havasgul Amrulla qizi,

³Oxunova Sohiba G'ofur qizi,

⁴Ernazarov Sanjar Nurali o'g'li

¹Jizzax davlat pedagogika universiteti

Pedagogika va psixologiya fakulteti tyutori,

²Jizzax shahar 16-maktab o'qituvchisi,

³Sh.Rashidov tumani 12-maktab o'qituvchisi,

⁴Pedagogika va psixologiya fakulteti

Surdopedagogika yo'nalishi II-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7294374>

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangilanayotgan O'zbekistonda Konstitutsiyaviy islohotlar yoshlar nigohida, Konstitutsiya zarurati va mohiyatiga oid masalalar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Qonunchilik, Konstitutsiyaviy komissiya, takliflar, demokratik o'zgarishlar, fuqarolar, tashabbus, xalq irodasi.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar nafaqat fuqarolarimizning yashash va turmush tarziga, balki qonunlarimizni ham zamon talablariga mos tarzda bo'lishini talab qiladi. Bu borada asosiy qonunimizni ham isloh qilishga muhtojligini, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishini talab qiladi.

Qayd etilganidek, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan shiddatli islohotlarni izchillik bilan davom ettirishda huquqiy poydevorni yanada mustahkamlash va keng ko'lamli o'zgarishlarni qat'iy davom ettirish maqsadida konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirishda aholining qariyb 60%ini tashkil etuvchi yoshlarning ishtiroki hamda takliflari muhim. Yoshlar, xususan, Yoshlar parlamenti bu jarayonda asosiy lakomativ vazifasini o'tashi hamda parlamentga yoshlarning huquq va manfaatlarini konstitutsiyaviy islohotlarda aks ettirishda yordamchi bo'lishi zarur.

O'zbekiston konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirishda katta tajribaga ega. Xususan, Harakatlar strategiyasida ko'zda tutilgan vazifalarni amalga oshirish doirasida 7 marta Konstitutsiyaning 21 moddasiga 32 ta o'zgartirish va qo'shimcha kiritilgan. Xususan, ular parlament, Prezident va hukumat faoliyatiga, sud hokimiyatining mustaqilligi va rivojlanishiga, hokimiyat tarmoqlari o'rtasida o'zaro nazorat va muvozanatni saqlash tizimiga, saylov tizimini demokratlashtirish va mahallaga tegishli bo'lgan. Bu o'zgarishlarga yoshlarimiz ham katta hissalarini qo'shdi desak adashmagan bo'lamiz.

Qonun ustuvorligi xalq hokimiyati va inson huquqlari tushunchalari bilan bevosita bog'liq prinsipdir. Chunki xalq hokimiyati deganda fuqarolarning qarorlar qabul qilish jarayonida bevosita yoki bilvosita ishtirok etish huquqi tushuniladi. Shu ma'noda xalq irodasining ifodasi bo'lgan, fuqarolarning parlamentga saylab qo'ygan vakillari orqali yoki o'zlari tomonidan bevosita referendum orqali qabul qilingan qonunlar xalq hokimiyatchiligining natijasi, majoziy qilib aytganda, mevasi hisoblanadi. Inson huquq va erkinliklari qonunlar vositasida hayotga joriy etiladi, aslida qonunlarning pirovard maqsadi ham inson, uning huquq va erkinliklarini himoya qilishdan iboratdir.

Sir emaski, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar, butun kuch va salohiyatimiz yagona ulug' maqsad – Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan. Amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı yangilanishlar yoshlarimizni, fuqarolarimizni erkin va farovon yashashiga, "Inson qadri uchun" degan tamoyilni hayotga keng joriy etish orqali suverenitetimizni mustahkamlash va yurt tinchligi ta'minlashga xizmat qilmoqda. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev Prezidentlikka kirishish nutqida: "Asosiy qomusimiz kafili sifatida Konstitutsiya va qonunlarimiz talablarini so'zsiz bajarish, "Inson qadri uchun" degan ustuvor tamoyilni to'la ro'yobga chiqarish bundan buyon ham faoliyatimning bosh mezoni bo'lib qoladi",- deb alohida ta'kidlagan edilar.

Ta'kidlash kerakki, Yangi O'zbekistonning milliy taraqqiyot yo'li "inson-jamiyat-davlat" degan yangi tamoyil asosida amalga oshirilmoqda. Adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash, xalqchil davlat qurish, inson qadr-qimmatini ulug'lash insonparvar davlat siyosatining bosh mezoniga aylandi. Qabul qilinayotgan qonunchilik xujjatlarida ham fuqarolarning demokratik erkinliklari o'z tasdig'ini topmoqda. Insoniyat o'zining tarixiy taraqqiyot bosqichlarida moddiy madaniyat bilan bir qatorda ma'naviy hayotini ham boyitib boradi. Insoniyat tomonidan yaratilgan ma'naviy madaniyatning katta qismini huquq va majburiyatlarni kafolatlab yoki belgilab beruvchi qonunlar tashkil qiladi. Mamlaktning bosh qomusi sifatida Konstitutsiyada davlat va jamiyatning barcha bo'g'inlaridagi huquqiy normalar aniq belgilab beriladi. Hozirgi kunda konstitutsiyani davlatsiz, davlatni konstitutsiyasiz tasavvur qilish qiyin. Lekin ular ijtimoiy taraqqiyotning turli davri mahsulidir. Davlat konstitutsiya paydo bo'lgan davrdan ancha ilgari vujudga kelgan va konstitutsiyasiz faoliyat ko'rsatgan. Konstitutsiya asosiy qonun bo'lgunga qadar ham mavjud bo'lgan. Bu atama baynalmilal atama bo'lib, lotin tilidan olingan va "o'rnataman", "tasdiqlayman" degan ma'noni beradi. Konstitutsiya atamasi hozirda "tuzilish" degan ma'noda ham ishlatiladi.

Ayni damda mamlakatimiz hayotida konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarning barqaror rivojlanishi va mustahkamlanishi, Yangi O'zbekistonni bunyod etish va

Uchinchi Renessans asoslarini shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamli va shiddatli demokratik islohotlar amalga oshirilmoqda. 2021-yilning oktabr oyida O'zbekiston Prezidenti saylovi jarayonida barcha nomzodlarning elektorat vakillari bilan uchrashuvlari chog'ida hayotiy talabdan kelib chiqqan va mamlakatimizdagi demokratik islohotlarning mantiqiy davomi bo'lgan muhim taklif – konstitutsiyaviy islohotni amalga oshirish ilgari surilgan edi. Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29 yilligi bayram tabrigida: “Darhaqiqat, bugungi shiddatli davr bizdan zamonga mos harakat va o'zgarishlarni talab etmoqda. Ana shunday talabga javob beradigan mukammal Konstitutsiyaga ega bo'lish uchun Qonunimizning yangi loyahasini tayyorlashimiz, uni umumxalq muhokamasiga qo'yib, bildirilgan takliflar asosida takomillashtirish, ushbu muhim siyosiy xujjatni 2022-yil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 30 yillik bayrami nishonlanadigan knlarda qabul qilish, o'ylaymanki, milliy davlatchilik an'analarimizga, xalqimiz manfaatlariga munosib ish bo'ladi”,-deb ta'kidlagan edi.

Ana shu keng qonunchilik islohotlarini amalga oshirish maqsadida 2022 yil 16-may kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining eng yirik fraksiyalari – O'zLiDeP va “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining alohida, 17-may kuni mamlakatimizda konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirish va ushbu masalani Oliy Majlis palatalari kengashlari muhokamasiga kiritishga bag'ishlangan qo'shma yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Shu bilan bog'liq holda, 20-may kuni Senat va Qonunchilik palatasi kengashlarining qo'shma majlisi o'tkazildi. Bu yig'ilishda Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflarni shakllantirish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya tashkil etilib, uning tarkibi va vazifalari belgilandi. Mazkur Konstitutsiyaviy komissiya tarkibiga barcha hududlardan deputatlar, senatorlar, jamiyatning turli qatlamlari, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari, yetuk huquqshunos va siyosatshunoslar hamda boshqa ekspertlardan iborat jami 46 kishi kiritildi. Bugungi kunda Komissiya tomonidan aholining taklif va tashabbuslari o'rganilmoqda. 2022-yilning 20-iyun kuni Prezidentimiz Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashib, asosiy qomusimizga doir taklif va tashabbuslarini ilgari surdilar. Jumladan, ushbu maruzada Davlatimiz rahbari quyidagi to'rtta ustuvor yo'nalish asosida o'zining takliflarini berib o'tdi:

- inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmat, dahlsiz huquqlari va mafaatlari masalasi;
- Yangi Konstitutsiyada “O'zbekiston – ijtimoiy davlat” degan tamoyilni mustahkamlash;
- ertkin va adolatli fuqarolik rivojlanishi bilan bog'liq masalalar;

- O'zbekistonda insonparvar, demokratik huquqiy davlat qurish.

Prezidentimiz bugun shiddatli taraqqiyotning o'zi oldimizga qo'yayotgan muhim bir talabni chuqur tushunib olishimiz zarurligini ta'kidlab, hozirgi tahlikali zamon, yon- atrofimizdagi murakkab vaziyat ona Vatanimiz taqdiriga yanada ulkan mas'uliyat bilan yondashib, kechiktirib bo'lmaydigan strategik qarorlar qabul qilishni taqozo etayotganini ta'kidlab o'tdilar. Konstitutsiyaviy komissiyaga 48 ming 492 ta taklif kelib tushgan. Takliflar atroflicha tahlil etilib, eng munosib takliflar yangi qomusimizda o'z aksini topadi. Yangilanayotgan O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi shubhasiz inson qadrini yuksaltirish tamoyilini o'zida aniq ifoda etib, el-yurt tashvishi bilan yashaydigan xalqchil davlat barpo etishning mustahkam huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev.Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. Xalq so'zi. 238 (8018). 2022-yil 6-noyabr.
2. Xalq so'zi. 262 (8042). 2021-yil 8-dekabr.
3. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. – T.: Adolat, 2013.
4. www.prezident.uz sayti ma'lumotlari